# Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2020- yil yanvar-oktabr)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 53 091,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 109,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (84,6 %) ni tashkil etdi.







***B**–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI*** *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 86,0 % ga va elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 13,7 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 9,8 % ga hamda , tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 5,5 % ga o‘sishiga xizmat qildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*







Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 110,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,6 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi




## Ishlab chiqaradigan sanoat




2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 44 899,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,6 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2019-yilning yanvar-oktabr oylarida - 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 5,2 % (6,5 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 87,6 % (84,7 %) va quyi texnologiyalisi - 6,8 % (8,5 %) ni tashkil etdi.

#### Yuqori texnologiyali

**Ulushi *% da***

0,3 — 2019- y.

0,4 — 2020- y.

#### O‘rta-yuqori texnologiyali

**Ulushi *% da***

6,5 — 2019- y.

5,2 — 2020- y.

#### O‘rta-quyi texnologiyali

**Ulushi *% da***

84,7 — 2019- y.

87,6 — 2020- y.

#### quyi texnologiyali

**Ulushi *% da***

8,5 — 2019- y.

6,8 — 2020- y.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 5,0 % (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 94,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 79,7 % (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 104,5 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,5 % (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 90,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,0 % (2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 93,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,9 % (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 123,3 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2020- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 39,6 ming m³ argon (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 63,7 % ga o‘sgan), 7,5 ming tonna kalsiy xlorid (88,4 %), 56,1 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (21,0 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, *% da*

**Argon**




**Kalsiy xlorid**




**Sement**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Gazsiz suv**




**Suv eritmasidagi ammiak**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan o’sish, % da |
|---|---|---|---|
| **Portlandsement,** ming tonna. | 3 112,0 | 3 088,0 | 99,2 |
| **So’ndirilmagan va so’ndirilgan ohak**, tonna. | 48 053,0 | 45 523,0 | 94,7 |
| **Ammoniy nitrat,** ming tonna azot. | 196,5 | 143,2 | 72,9 |
| **Natriy gidroksidi (kaustik soda),** ming tonna. | 15,3 | 65,5 | 429,0 |
| **Kislorod,** ming $m^3$. | 127,2 | 170,5 | 134,0 |
| **Temir beton,** tonna. | 40 752,0 | 19 135,0 | 47,0 |
| **Birinchi navli undan tayyorlangan bug’doy noni og’irligi 600 g (buxanka),** tonna. | 478,5 | 370,3 | 77,4 |
| **Ishlov berilgan suyuq sut,** tonna. | 964,8 | 799,7 | 82,9 |

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan kislorod (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 134,0 %),hamda kaustik soda mahsulotlarida (4,3 m) o‘sish ko‘rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, temir beton mahsuloti (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan - 47,0 %) ishlab chiqarish sanoatida pasayishi kuzatildi.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 935,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,5 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 13,7 % ga oshganligi kuzatildi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi







### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt/s* | 7 675,9 | 9 536,9 | 1 861,0 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 2 989,1 | 2 748,2 | -240,9 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 145,5 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi







| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 12 021,4 | 33 894,0 | 21 872,6 |
| **Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig’ish bo’yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 22,0 | 9,3 | -12,7 |
| **Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig’ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar,** *tonna* | 46 026,6 | 45 325,4 | -701,2 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar (2,8 m) ga oshganligi kuzatildi, shuningdek, xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig’ish bo’yicha xizmatlar – 57,9 % hamda boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig’ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 1,5 % ga pasayishi kuzatildi.

**Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 108,4 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 5,9 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino-aroq mahsulotlari va pivo 0,4 % (2019- yil yanvar-sentabr oylarida 0,02 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib, 30,7 % ni, shuningdek, Karmana tumani 17,0 % ni, Xatirchi tumani 14,3 % ni, Qiziltepa tumani 12,3 % ni hamda Navbahor tumani 6,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (105,5 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Navoiy shahri (108,4 %) hamda Konimex tumanida (108,2 %) qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**
*(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 953,3 | 30,7 | 108,4 |
| Zarafshon sh. | 198,9 | 6,4 | 103,5 |
| Karmana t. | 529,1 | 17,0 | 107,9 |
| Konimex t. | 74,2 | 2,4 | 108,2 |
| Qiziltepa t. | 380,7 | 12,3 | 105,4 |
| Navbahor t. | 212,6 | 6,8 | 101,5 |
| Nurota t. | 187,2 | 6,0 | 103,2 |
| Tomdi t. | 32,4 | 1,0 | 110,6 |
| Uchquduq t. | 95,9 | 3,1 | 102,6 |
| Xatirchi t. | 444,1 | 14,3 | 100,8 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib, 36,6 %, shuningdek, Karmana tumani 20,2 % ni, Xatirchi tumani 11,6 % ni, Qiziltepa tumani 8,3 % ni hamda Nurota tumani 7,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (105,6 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Tomdi tumanida (123,1 %)  qayd etildi.etildi.

**Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 686,6 | 36,6 | 107,5 |
| Navbahor t. | 105,2 | 5,6 | 104,5 |
| Zarafshon sh. | 93,4 | 5,0 | 100,5 |
| Nurota t. | 139,4 | 7,4 | 105,3 |
| Karmana t. | 379,2 | 20,2 | 110,4 |
| Tomdi t. | 17,3 | 0,9 | 123,1 |
| Konimex t. | 36,8 | 2,0 | 118,8 |
| Uchquduq t. | 44,9 | 2,4 | 107,0 |
| Qiziltepa t. | 155,5 | 8,3 | 93,8 |
| Xatirchi t. | 217,8 | 11,6 | 101,1 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib, 21,9 %, shuningdek, Xatirchi tumani 18,4 % ni,Qiziltepa tumani 18,3 % ni, Karmana tumani 12,2 % ni hamda Navbahor tumani 8,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Qiziltepa tumanida (115,1) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 266,7 | 21,6 | 110,5 |
| Navbahor t. | 107,4 | 8,7 | 98,8 |
| Zarafshon sh. | 105,5 | 8,6 | 106,3 |
| Nurota t. | 47,8 | 3,9 | 97,4 |
| Karmana t. | 149,9 | 12,2 | 102,1 |
| Tomdi t. | 15,1 | 1,2 | 99,0 |
| Konimex t. | 37,4 | 3,0 | 99,5 |
| Uchquduq t. | 51,0 | 4,1 | 99,0 |
| Qiziltepa t. | 225,2 | 18,3 | 115,1 |
| Xatirchi t. | 226,3 | 18,4 | 100,5 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 123,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 2,1 % ni tashkil etdi.

## Navoiy viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)*

**Navoiy viloyati**

| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 53 091,0 | 100,0 | 109,5 |

| Hudud | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 44 718,0 | 84,2 | 109,1 |
| Navbahor t. | 442,9 | 0,8 | 105,5 |
| Zarafshon sh. | 276,1 | 0,5 | 122,2 |
| Nurota t. | 225,2 | 0,4 | 102,2 |
| Karmana t. | 5 594,8 | 10,6 | 120,3 |
| Tomdi t. | 37,6 | 0,1 | 115,7 |
| Konimex t. | 328,7 | 0,6 | 115,1 |
| Uchquduq t. | 112,3 | 0,2 | 103,7 |
| Qiziltepa t. | 898,1 | 1,7 | 106,6 |
| Xatirchi t. | 457,3 | 0,9 | 105,3 |

## Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati *% da*

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining viloyat kursatkichidan yuqori, Zarafshon shahrida (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 122,2 %) hamda Karmana tumaniga (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 120,3 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Tomdi tumanida (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 10,6 %), Navoiy shahrida ( 8,4 %), Konimex tumanida ( 8,2 %) hamda Karmana tumanida ( 7,9 %) sezilarli darajada oshdi.

## Navoiy viloyaninig jami sanoat mahsulotlari hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Navoiy shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 84,2 %) hamda Karmana (10,6 %), Qiziltepa (1,7 %), Xatirchi ( 0,9 %), Navbahor ( 0,8 %), va Konimex (0,6 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Tomdi (0,1 %), Uchquduq (0,2 %), Nurota (0,4 %), tumanlariga hamda Zarafshon shahriga (0,5 %) to‘g‘ri kelmoqda.






## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, % da)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 436,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.






Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Nurota (99,3%), Xatirchi (98,9 %), Navbahor (64,8 %) tumanlarida hamda Zarafshon shahrida (85,6 %) ni tashkil etdi.

Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki,Navoiy shahrida (1,6 %), Karmana (15,9 %), Konimex tumanlarida (29,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

### Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda

*(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra)*

Bugungi kunda viloyatimizda 3 255 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 715 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,0 % ) Navoiy shahriga, 532 tasi (16,3 %) Karmana tumaniga, 406 tasi (12,5 %) Xatirchi tumaniga hissasiga to'gri kelmoqda.




### Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda

*(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra)*



2020- yil yanvar-oktabr oyida viloyatimizda 798 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 170 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 21,3 %) Xatirchi tumanida, 126 tasi (15,8 %) Uchquduq tumanida, 107 tasi (13,4 %) Karmana tumanida, 87 tasi (10,9 %) Qiziltepa tumanida, 97 tasi (12,2 %) Navoiy shahrida hamda 81 tasi (10,2 %) Zarafshon shahrida tashkil etildi.

*Navoiy viloyati statistika boshqarmasining*
*sanoat statistikasi bo‘limi*
*Tel.: (79) 223-33-29*